



MUSIQA TA'LIMINI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEKNOLOGIYALARI: NOTA MUHARRIRI DASTURLARINING AHAMIYATI

Muallif: Fazliddin Abdusalomov¹, dotsent S.T.Turatov²

Affilyatsiya: O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Xalq ijodiyoti (cholg'u ijrochiligi) magistratura bo'limi 2-kurs talabasi¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14405520>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola musiqa ta'limali innovatsion texnologiyalarning, xususan, nota muharriri dasturlarining o'rni va ahamiyatini yoritadi. Maqola globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida musiqa ta'limalining yangi yondashuvlar bilan to'ldirilishi zaruriyatini ta'kidlaydi. Finale, Sibelius, MuseScore, Dorico kabi nota muharriri dasturlari ta'lim jarayonida qanday qo'llanilishi, ularning turli imkoniyatlari va afzalliklari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Nota, muharriri, Sibelius, Finale, MuseScore, Dorico, kompozitsiya, musiqa sayqallash.

KIRISH

Hozirgi kunda globallashuv va raqamli texnologiyalar dunyosida ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun innovatsion yondashuvlar zarur. Musiqa ta'limali, ayniqsa, musiqa nazariyasi va kompozitsiya sohalarida zamonaviy texnologiyalar, jumladan, nota muharriri dasturlari, o'quv jarayonini yangilashda muhim o'rindustadi. Nota muharriri dasturlari, xususan Finale, Sibelius, MuseScore, va Dorico kabi dasturlar, o'quvchilarga musiqiy fikrlashni rivojlantirish, kompozitsiya va musiqa sayqallashtirishga oid bilimlarni mustahkamlashda muhim vositalarga aylangan. Bu dasturlar ta'lim jarayoniga qo'shgan innovatsion yondashuvlar, musiqiy asarlarni yaratish, tahlil qilish va o'qitishda interaktiv metodlarni qo'llash imkonini beradi.

Asosiy qism. Musiqa o'qitish jarayoniga ilg'or innovatsion, yangi, zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish kun tartibidagi dolzarb masalaga aylandi, desak xato bo'lmaydi. Demak, o'sib kelayotgan qobiliyatli, yuksak iqtidor egasi bo'lgan yoshlarga musiqa nazariyasi, garmoniya, musiqa tarixi va ijrochiligi borasida bilimlarni singdirishda zamonaviy innovatsion ta'lim vositalarini keng qo'llash ijtimoiy zarurat sifatida namoyon bo'lmoida. Yuqorida keltirilgan musiqiy nazariy fanlardan o'quv kontentlaridagi nota matnlarini Sibelius, Finale, MuseScore, Dorico kabi nota muharriri dasturlaridan foydalangan holda dars jarayonining samaradorligini oshirishga erishish mumkin bo'ladi. Sodda qilib aytganda, "Yuz marta eshitgandan, bir marta ko'rganing afzaldir" iborasiga ayni misol bo'la oladi. Nota muharriri dasturlari musiqa ta'limalida bir qator afzalliklarni taqdim etadi. Ular o'quvchilarni yaratishga, kompozitsiya va musiqa sayqallashtirishga o'rgatishga imkon beradi. Dars jarayonlarida ushbu dasturlar yordamida o'qituvchilar.

Dars rejalarini tuzishda: O'qituvchilar o'quvchilarga osonlik bilan musiqa darslarini yoritishda yordam beradi. Dasturlar musiqiy asarlarni to'g'ri va aniq yozishga imkon beradi.

- Kompozitsiya va musiqa sayqallashtirishga o'rgatishda: Dasturlar yordamida o'quvchilar asarlar yaratishni o'rganadilar va musiqiy fikrlarini samarali ifodalash imkoniga ega bo'ladilar.

- Nazariy fanlarni interaktiv o'qitishda: O'qituvchi musiqa nazariyasining murakkab konseptlarini interaktiv tarzda o'rgatishi mumkin, bu esa o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi.

Nota muharriri dasturlarining ta'limdi qo'llanishining bir nechta asosiy yutuqlari mavjud:

1. O'quvchilarning texnik va ijodiy salohiyatini oshirish: Musiqa dasturlari o'quvchilarga musiqiy asarlar yaratishda erkinlik berish orqali ularning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Dasturlar yordamida ular murakkab strukturalarni osonlik bilan tahlil qilishlari mumkin.

2. O'qituvchilar uchun vaqt ni tejash va samaradorlikni oshirish: Dasturlar o'qituvchiga darslarni avtomatik tarzda tayyorlash, musiqiy tahlilni ko'rsatish va zarur hollarda o'quvchilarga feedback berishni osonlashtiradi.

3. Ta'lim jarayonini vizuallashtirish: Musiqa ta'limida vizuallashtirish orqali nazariy fanlarni o'rganish osonlashadi, bu esa o'quvchilarning o'rganish jarayonini samarali va interaktiv qilishga yordam beradi.

Pedagogik texnologiyalar bilan bog'lanishi: Interaktiv ta'lim usullari, masalan, muammoli o'qitish va loyiha metodlari, nota muharriri dasturlari yordamida yanada samarali amalga oshirilishi mumkin. Ushbu usullar o'qituvchi va o'quvchi o'rtaida faol muloqotni ta'minlab, o'quv jarayonini yanada jozibador va ta'sirchan qiladi. Dasturlar orqali o'quvchilar o'z musiqiy asarlarini yaratish bilan birga, ularni tanqidiy tahlil qilish va jamoaviy ish olib borishni o'rganadilar.

Nota muharriri dasturlarining turlari va imkoniyatlari

Dastur	Tavsif	Funktionallik
Finale	Musiqa kompozitsiyasi va notalarini yozish uchun professional dastur.	Kengaytirilgan imkoniyatlar, mukammal tahrirlash va chop etish funksiyalari.
Sibelius	Keng tarqalgan, intuitiv interfeysga ega dastur.	Ko'plab tematikalashgan shablonlar, shuningdek, virtual orkestrlarni qo'llash.
MuseScore	Bepul va ochiq manbali dastur.	Asosiy notalar tahriri, kompozitsiya va interaktiv ta'limdi qo'llanishi.
Dorico	Yangi avlod dasturi, ko'p funksiyali va intuitiv interfeysga ega.	Yangi texnologiyalar, musiqiy shakllarni yaratish va tahrirlash imkoniyatlari.

Finale – bu professional darajadagi nota muharriri dasturi bo'lib, asosan kompozitorlar, bastakorlar va o'qituvchilar tomonidan keng foydalilanildi. U musiqiy



partituralarni yozish, tahrirlash va chop etish uchun yaratilgan. Finale o'zining keng funksionalligi, har bir detallarni aniq sozlash imkoniyati va kengaytirilgan notatsiya imkoniyatlari bilan mashhur. Bu dastur turli xil ansamblar va orkestrlar uchun murakkab partituralarni yaratishda juda foydali.

Ta'limdi qo'llanilishi: Finale dasturi musiqiy-nazariy fanlarni chuqur o'rgatishda, ayniqsa murakkab musiqiy kompozitsiyalarni tahlil qilish va yaratishda keng qo'llaniladi. Bu dastur o'quvchilar va o'qituvchilar uchun musiqiy notatsiyaning turli murakkablik darajalarini o'rgatish imkonini beradi.

Ta'lim uchun qulayligi: Dasturda yaratilgan partituralar to'g'ridan-to'g'ri chop etilishi yoki raqamli formatda saqlanishi mumkin, bu musiqiy asarlarni tahlil qilish uchun dars materiallarini tayyorlashda yordam beradi. Undan tashqari MIDI interfeysi yordamida tinglash imkoniyati mavjud bo'lib, bu esa tinglab-tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Sibelius – dunyodagi eng ommabop nota muharrirlaridan biri bo'lib, o'qituvchilar, bastakorlar va ijrochilar uchun mo'ljallangan. U intuitiv interfeysi va keng funksional imkoniyatlari bilan mashhur. Sibelius interaktiv o'qitish imkoniyatlarini taqdim etadi va turli musiqiy formatlarda eksport qilishga imkon beradi. Shu bilan birga, u turli platformalar bilan uyg'un ishlaydi va musiqani o'rganishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash uchun moslashtirilgan.

Ta'limdi qo'llanilishi: Sibelius, ayniqsa, pedagogik dastur sifatida mashhur. O'qituvchilar ushbu dastur orqali o'quvchilarga musiqiy notatsiyaning barcha bosqichlarini o'rgatishlari mumkin. Bunda musiqiy kompozitsiyalarni yaratishdan tortib, real vaqtda tinglash va sharplashgacha keng ko'lamli imkoniatлага egadir.

Ta'lim uchun qulayligi: Sibelius musiqiy yozuv va ijrochilik ko'nikmalarini o'rgatishda ko'p platformali foydalanish imkoniyatini taqdim etadi ya'ni "Eksport" menyusida PDF, TIFF, PNG, MIDI, MP3, MP4 va yana boshqa bir qancha fayl turlariga o'gira olishi nazarda tutilmoqda.

MuseScore – ochiq kodli va bepul foydalanish mumkin bo'lgan nota muharriri dasturi. Bu dastur notalar yozish va tahrirlash uchun qulay interfeysi taqdim etadi. U yangi boshlovchilar va tajribali musiqachilar uchun birdek foydali hisoblanadi. MuseScore MIDI klaviaturani qo'llab-quvvatlaydi va turli musiqiy formatlar bilan ishlash imkonini beradi. O'quv jarayonida o'qituvchilar va talabalar uchun qulay vosita hisoblanadi.

Ta'limdi qo'llanilishi: MuseScore dasturi yangi boshlovchi musiqachilar va o'quvchilar uchun juda mos. Bu dastur o'quvchilarning musiqiy asarlarni yozishni o'rganishini osonlashtiradi. U bepul bo'lgani sababli musiqiy ta'lim muassasalarida keng qo'llanilishi mumkin.

Ta'lim uchun qulayligi: Ushbu dasturda bepul platforma sifatida, istalgan o'quvchi yoki o'qituvchi uchun ochiqdir. Bu esa o'quvchilarga tayyor asarlarni yuklab olish va ularni tahrirlash imkoniyatini beradi. Oddiy interfeysi tufayli o'qituvchilar musiqiy mavzularni dars jarayonida tushuntirishda va namoyish qilishda tez o'rgatish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Dorico – Steinberg kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan yuqori darajadagi nota muharriri. U o'zining innovatsion interfeysi va musiqani tezkor yaratish uchun moslashtirilgan tizimi bilan ajralib turadi. Dorico orkestrlar, xorlardan tortib yakka

ijrochilargacha barcha musiqiy loyihalar uchun mo'ljallangan. Ushbu dastur professional bosma sifatli partituralar yaratish va musiqiy yozuvni chuqr o'rganishda yordam beradi.

Ta'limdi qo'llanilishi: Dorico o'zining intellektual interfeysi bilan musiqa nazariyasini o'qitish jarayonida innovatsion texnologiya sifatida qo'llaniladi. Uning avtomatlashtirilgan funksiyalari murakkab musiqiy tuzilmalarni yaratishni osonlashtiradi. Harmoniya va kontrapunkt kabi murakkab mavzularni tushuntirish uchun qulay vosita. Talabalar uchun orkestrlash va aranjirovka qilishni o'rgatishda ideal.

Ta'lim uchun qulayligi: Dorico o'qituvchilar va talabalar orasida musiqiy notatsiyaning sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, u sinfda jonli ijro qilish imkoniyatlarini taklif etadi. O'quvchilar o'z kompozitsiyalarini yaratishda avtomatlashtirilgan jarayonlardan foydalanish imkoniga ega bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan misollar orasidan Sibelius dasturining qisqacha ta'rifiga to'xtlib o'tishni lozim deb topdim. Chunki O'zbekistonda aynan ushbu dasturning foydalanuvchilari boshqa nota muharriri dasturlariga qaraganda ko'pchilikni tashkil etadi. "Sibelius dasturi 1986-yilda egizaklar Ben va Jonatan Finn tomonidan ixtiro qilingan birinchi marta 1993-yilda Acorn Risc kompyuteri uchun chiqarilgan, Windows va Mac versiyalari mos ravishda 1998-1999 yillarda ishlab chiqarilgan. Sibelius va uning asosiy raqobatchisi Finale musiqa nashriyotlarida, ta'lim muassasalarida keng qo'llaniladi. Sibeliusda yozilgan nota yozuvlar kino, televiedenie, teatr va boshqa saundtreklar sifatida ishlatiladi. Sibelius bu turdag'i dasturlar ichida eng mashhuri va ommalashgani bo'lib, dunyoning 100 dan ziyod davlatlarida yuz minglab foydalanuvchilariga ega."

XULOSA

Nota muharriri dasturlarining musiqa ta'limidagi roli beqiyosdir. Ular nafaqat musiqa kompozitsiyasini yaratish, balki ta'lim jarayonini samarali, interaktiv va ijodiy tarzda olib borish imkonini beradi. Bu dasturlar yordamida o'quvchilarning texnik va ijodiy salohiyati oshadi, o'qituvchilar esa vaqtini tejash va samarali o'qitish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu tarzda, innovatsion yondashuvlarni qo'llash orqali milliy va global ta'lim standartlarini uyg'unlashtirish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha belgilab bergen 5 ta muhim tashabbuslardan uchinchisi aholi va yoshlar o'rtaida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilganligi ham zamonaviy texnologiyalar bilan hamnafas yashash bugunning dolzarb masalalaridan biri ekanligini ta'kidlab turibdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Kasbiy psixologiya [Matn]: darslik / A. Baxriyev. - Toshkent: Musiqa, 2019. - 276 b

"Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal/<http://oac.dsni-qf.uz>

Notalashtirish va kompyuter dasturlarida ishlash (O'quv qo'llanma)/ N. Rexmatov – Buxoro, 2020. -132 b